

SOYA O'SIMLIGINING DUKKAKDA DON SHAKLLANISHIGA EKISH MUDDATI VA ME'YORINING TA'SIRI

Ismatova Mahliyo Asliddin qizi

ORCID 0009-0005-2215-2085

Qarshi davlat texnika universiteti assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqola soyaning "Nafis" va "O'zbek-6" navlarida turli ekish muddatlari va me'yorlarini qo'llaganda soyaning bir dona dukkakdagi donlar soniga ta'siri bo'yicha olingan ma'lumotlar va ularning tahlili keltirilgan bo'lib, dukkakdagi donlar soni yillar bo'yicha (2022, 2023, 2024) taqqoslangan va o'rtacha dukkakdagi don soni qayd qilingan. Eng maqbul bir dona dukkakdagi don soni ko'rsatkichi o'rta muddat (15.04) da 375 ming/ga ekilganda "Nafis" navida 3,0 dona "O'zbek-6" navida 2,9 dona bo'lganligi aniqlandi.

Kalit so'zlar. dukkak, don, iqlim, ekish me'yori, tahlil, soya, rivojlanish, tadqiqot, ekin, dehqonchilik, tahlil.

Аннотация. В статье представлены данные о влиянии различных сроков и норм сева на количество зерен в стручке сои сортов «Нафис» и «Узбекская-6» и их анализ. Сравнивалось количество зерен в стручке по годам (2022, 2023, 2024) и фиксировалось среднее количество зерен в стручке. Определен оптимальный показатель количества зерен в стручке – 3,0 зерен у сорта «Нафис» и 2,9 зерен у сорта «Узбекская-6» при норме посева 375 тыс./га в средний срок (15.04).

Ключевые слова. бобовые, зерновые, климат, стандарты посадки, анализ, соя, развитие, исследования, урожай, сельское хозяйство, анализ.

Abstract. This article presents data on the effect of different sowing dates and standards on the number of grains per pod of soybeans in the "Nafis" and "Uzbek-6" varieties and their analysis. The number of grains per pod was compared by year (2022, 2023, 2024) and the average number of grains per pod was recorded. The optimal indicator of the number of grains per pod was determined to be 3.0 grains in the "Nafis" variety and 2.9 grains in the "Uzbek-6" variety when planted at 375 thousand / ha in the medium term (15.04).

Keywords. legumes, grains, climate, planting standards, analysis, soybeans, development, research, crop, farming, analysis.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholini oqsil moddalariga boy mahsulotlar bilan ta'minlash va eksportbop texnik ekinlar yetishtirishni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangan. Mamlakatimizda soya yetishtirish sohasiga ham katta e'tibor qaratilmoqda, chunki ushbu ekin yuqori hosildorlikka ega bo'lib, uning donlarida 35-40 foiz oqsil va 18-22

foiz yog' moddalar mavjud. Shuningdek, soya tuproqni azot bilan boyituvchi biologik xususiyati tufayli keyingi ekinlar uchun muhim agrotexnik ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda soya yetishtirishni kengaytirish va qayta ishlashni rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-apreldagi PP-146-sonli "Qishloq, o'rmon xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari bilan Prezident muloqotida belgilangan vazifalarni bajarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda 2024-yil 15-apreldagi 201-sonli Hukumat qarori "Don, dukkakli va yog'li ekinlar urug'larini eksport va iste'mol maqsadida yetishtirishni ixtiyoriy sertifikatlash tartibi to'g'risida"gi hujjatlarda soya yetishtirishni kengaytirish va urug'chilik tizimini takomillashtirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi.

Shuningdek, 2025-yil 14-iyuldagi 438-sonli qaror bilan mamlakatda yog'li ekinlar, jumladan soya yetishtirish hajmini oshirish, ilmiy tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilandi [1]. Ushbu qarorlar soya yetishtirishning iqtisodiy va ilmiy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Soya yetishtirishda yuqori hosilga erishish ko'p jihatdan ekish muddati va urug' sepish me'yoring to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Ekish muddatining kechikishi yoki urug' me'yoring noto'g'ri belgilanishi soyaning o'sish va rivojlanish bosqichlariga, gullash vaqtiga, dukkak hosil bo'lishi va don shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, har bir mintaqa uchun optimal ekish muddati va urug' sepish zichligini aniqlash soya yetishtirish samaradorligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

Ushbu mavzu doirasida bir qancha olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan jumladan:

J.Xikmatovning ta'kidlashicha soya tuproq unumdorligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Soya yig'ib olingandan so'ng 1 gektar maydonda 70-80 kg gacha biologik azot to'playdi. Uni tuproq unumdorligi past bo'lgan yerlarda siderat ekin sifatida ekib, tuproq unumdorligini oshirish mumkin [2].

G.Toshxo'jayevning keltirishicha soya o'simligi gullashdan dukkaklari pishguncha suvga talabchan bo'ladi, suv yetishmasa gullari va dukkaklari to'kiladi, pirovardida hosildorlik kamayadi. Shuning uchun soyadan yuqori hosil olish uchun yetarli me'yorda sug'orish zarur [3].

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi 2022-2024 yillarda soya o'simligining bir dona dukkakda don hosillanishiga ekish muddati va me'yoring ta'sirini aniqlash, optimal agrotexnikaviy parametrlarni belgilash hamda yuqori hosildorlikka erishish yo'llarini asoslashdir.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra 2022-2024 yillarda Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlarida soyaning O'zbek-6 va Nafis navlari erta (01.04) o'rta (15.04) kech (01.05) muddatlarda 325, 350, 375, 400 ming dona/ga ekildi va bir

dona dukkakdagi donlar sonining o'zgarishi o'rganildi. Soya navlarining bir dona dukkakdagi donlar sonining o'zgarishi navlarning xususiyatlariga va ko'rsatilgan ko'rsatkichlarga ko'ra turlicha bo'lganligi aniqlandi (1 - jadval).

Tadqiqot natijalariga ko'ra o'rganilgan navlar bo'yicha bir dona dukkakdagi donlar sonining o'zgarishi tahlil qilinganda, erta muddat (01.04) da "O'zbek-6" navida 325 ming dona/ga ekilganda 1,9 dona, 350 ming dona/ga ekilganda 2,6 dona, 375 ming dona/ga ekilganda 2,9 dona, 400 ming dona/ga ekilganda 2,7 dona dukkakdagi don soni aniqlandi. Shuningdek, "Nafis" navida 325 ming dona/ga ekilganda 2,0 dona, 350 ming dona/ga ekilganda 2,8 dona, 375 ming dona/ga ekilganda 2,9 dona, 400 ming dona/ga ekilganda 2,8 dona dukkakdagi don soni ko'rsatkichlari o'zgarganligi o'rganildi.

Eng yuqori bir dona dukkakdagi donlar sonining o'zgarishi 375-400 ming dona/ga ekilganda "Nafis" navida 2,9 dona "O'zbek-6" navida xam 2,9 dona bo'lganligi aniqlandi.

O'rta muddat (15.04) da "O'zbek-6" navida 325 ming dona/ga ekilganda 2,0 dona 350 ming dona/ga ekilganda 2,7 dona, 375 ming dona/ga ekilganda 2,9 dona, 400 ming dona/ga ekilganda 2,7 dona dukkakdagi donlar aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichlar "Nafis" navida 325 ming dona/ga ekilganda 2,1 dona, 350 ming dona/ga ekilganda 2,8 dona, 375 ming dona/ga ekilganda 3,0 dona, 400 ming dona/ga ekilganda 2,8 dona don ko'rsatkichlariga erishildi.

Eng maqbul bir dona dukkakdagi donlar soni ko'rsatkichi 375 ming dona/ga ekilganda "Nafis" navida 3,0 dona "O'zbek-6" navida 2,9 dona bo'lganligi aniqlandi.

Kech muddat (01.05) da "O'zbek-6" navida 325 ming dona/ga ekilganda 1,7 dona, 350 ming dona/ga ekilganda 2,3 dona, 375 ming dona/ga ekilganda 2,5 dona, 400 ming dona/ga ekilganda 2,3 donaga erishildi. Ushbu ko'rsatkichlar "Nafis" navida 325 ming dona/ga ekilganda 1,7 dona, 350 ming dona/ga ekilganda 2,4 dona, 375 ming dona/ga ekilganda 2,5 dona, 400 ming dona/ga ekilganda 2,4 dona dukkakdagi donlar qayd etildi.

Ekish muddatlari (erta, o'rta, kech) bo'yicha tahlil qilinganda, o'rta ekish muddati (15.04) da 375 ming/ga eng yuqori dukkakdagi donlar olindi. Bu muddatda 375 ming/ga ekish me'yorida O'zbek-6 navida 1,8 dona Nafis navida 1,9 dona dukkakdagi donlarga erishildi.

1-jadval

Soya navlarida dukkakdagi donlar sonining ekish muddati va me'yorlariga bog'liqligi (2022-2024 yy.)

T/r	Ekish muddati	Ekish me'yori	Nav nomi	Dukkakdagi don soni, dona			O'rtacha
				2022 yil	2023 yil	2024 yil	
1			O'zbek-6	2,0	1,9	1,9	1,9

2	Erta muddat (01.04)	325 ming dona/ga	Nafis	2,1	2,0	2,1	2,0	
3		350 ming dona/ga	O'zbek-6	2,7	2,5	2,7	2,6	
4			Nafis	2,9	2,7	2,8	2,8	
5		375 ming dona/ga	O'zbek-6	3,0	2,8	2,9	2,9	
6			Nafis	3,0	2,9	2,9	2,9	
7		400 ming dona/ga	O'zbek-6	2,8	2,6	2,7	2,7	
8			Nafis	2,9	2,8	2,8	2,8	
9		O'rta muddat (15.04)	325 ming dona/ga	O'zbek-6	2,1	1,9	2,0	2,0
10	Nafis			2,2	2,0	2,1	2,1	
11	350 ming dona/ga		O'zbek-6	2,7	2,6	2,7	2,7	
12			Nafis	2,9	2,7	2,8	2,8	
13	375 ming dona/ga		O'zbek-6	3,0	2,8	2,9	2,9	
14			Nafis	3,1	2,9	2,9	3,0	
15	400 ming dona/ga		O'zbek-6	2,8	2,6	2,8	2,7	
16			Nafis	3,0	2,8	2,8	2,8	
17	Kech muddat (01.05)		325 ming dona/ga	O'zbek-6	1,7	1,6	1,7	1,7
18				Nafis	1,8	1,7	1,8	1,7
19		350 ming dona/ga	O'zbek-6	2,3	2,1	2,3	2,3	
20			Nafis	2,5	2,2	2,4	2,4	
21		375 ming dona/ga	O'zbek-6	2,6	2,4	2,5	2,5	
22			Nafis	2,6	2,4	2,5	2,5	
23		400 ming dona/ga	O'zbek-6	2,4	2,2	2,4	2,3	
24			Nafis	2,5	2,2	2,4	2,4	

Ekish me'yorini bo'yicha tahlil qilinganda, 375 ming dona/ga ekish me'yorini eng samarali ekanligi aniqlandi.

Navlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, Nafis navi barcha ekish muddatlarida yuqori dukkaddagi donlar miqdoriga ega bo'lganligi aniqlangan. Xususan, Nafis navining eng yaxshi natijasi o'rta muddat (15.04) da 375 ming/ga ekilganda 3,0 dona dukkaddagi donlar olingan bo'lib bu eng yuqori ko'rsatkich hisoblandi.

Xulosa. O'rganilgan 3 yillik natijalarga ko'ra, bir dona dukkaddagi don soniga erishishda ekish muddati va ekish me'yorining katta ahamiyati borligi aniqlandi. Navlar bo'yicha tahlilda "Nafis" navi barcha ekish muddatlarida "O'zbek-6" navidan yuqori dukkaddagi donlar soniga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Eng yaxshi natija o'rta muddat (15.04) da, 375 ming dona/ga ekish me'yorida, Nafis navida 3,0 dona dukkaddagi don bilan qayd etildi. Shuningdek, ekish me'yorini bo'yicha tahlil 375 ming/ga eng samarali ekanligini ko'rsatdi. Shundan kelib chiqadiki, yuqori dukkaddagi donlar soniga erishish uchun Nafis navini o'rta ekish muddatda va 375 ming dona/ga ekish me'yorida qo'llash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-iyuldagi 438-sonli qarori.
2. Xikmatov J. //Agro ilm. Maxsus son 3 2023-y, B.12-13.
3. Toshxo'jayeva G. //Agro ilm. 2-son 2023-y, B.28-29.
4. N.Xalilov, A.Hamzayev, B.Qo'ldoshev "Mahalliy va xorijiy soya navlarining ekish sxemalari va me'yorlarini maqbullashtirish" //Agro ilm. Maxsus son-2020 y, B.30-32.
5. Ellis K. E., Barbercheck M. E. Management of overwintering cover crops influences floral resources and visitation by native bees. Environ. Entomol. 44: 2016. P. 999–1010.